

ALTRUIZMNING GENDER XUSUSIYATLARI

Alijonova Shaxzoda Husanboy qizi

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: aljonovashaxzoda63@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada altruistik xulq-atvorning gender jihatlarini nazariy-qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Muallif altruizmni tushuntiruvchi evolyutsion, ijtimoiy almashuv, empatiya-altruizm va ijtimoiy rollar nazariyalarini qiyoslab, ularning gender tafovutlarini izohlash imkoniyatlarini baholaydi. Xorijiy tadqiqotlar natijalari umumlashtirilib, erkaklar va ayollarda altruizmning umumiy darajasi emas, balki uning namoyon bo'lish shakllari, sohalari va motivatsion asoslari farqlanishi asoslab beriladi. Shuningdek, gender stereotiplari, tarbiya va madaniy kontekstning ushbu tafovutlarni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatiladi. Maqola yakunida O'zbekiston sharoitida mavzuni empirik o'rganish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: altruizm, prosotsial xulq-atvor, gender, gender rollari, empatiya, gender stereotiplari, yordam berish xulqi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy rollar nazariyasi, motivatsiya

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АЛЬТРУИЗМА

Аннотация. В статье на основе теоретико-сравнительного анализа изучаются гендерные аспекты альтруистического поведения. Автор сопоставляет эволюционную теорию, теорию социального обмена, гипотезу эмпатии-альтруизма и теорию социальных ролей, оценивая их

объяснительные возможности применительно к гендерным различиям. Обобщая результаты зарубежных исследований, автор обосновывает, что у мужчин и женщин различается не столько общий уровень альтруизма, сколько формы, сферы и мотивационные основания его проявления. Показана роль гендерных стереотипов, воспитания и культурного контекста в формировании этих различий. В заключение даются рекомендации по эмпирическому изучению темы в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: альтруизм, просоциальное поведение, гендер, гендерные роли, эмпатия, гендерные стереотипы, помогающее поведение, психология личности, теория социальных ролей, мотивация

GENDER CHARACTERISTICS OF ALTRUISM

Abstract. *The article examines the gender aspects of altruistic behaviour on the basis of a theoretical and comparative analysis. The author compares evolutionary theory, social exchange theory, the empathy-altruism hypothesis and social role theory, assessing their capacity to explain gender differences. Summarising the findings of foreign research, the author argues that men and women differ not so much in the general level of altruism as in the forms, spheres and motivational grounds of its expression. The role of gender stereotypes, upbringing and cultural context in shaping these differences is demonstrated. The article concludes with recommendations for empirical study of the topic in Uzbekistan.*

Key words: *altruism, prosocial behaviour, gender, gender roles, empathy, gender stereotypes, helping behaviour, personality psychology, social role theory, motivation*

Kirish

Zamonaviy jamiyatda insonlararo munosabatlarning insonparvarlik mazmuni, o'zaro yordam va hamdardlik tuyg'usining saqlanib qolishi ijtimoiy barqarorlikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois shaxsning o'zga kishilar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishga tayyorligini ifodalovchi altruizm hodisasi psixologiya fanining doimiy e'tiborida turadi. Altruizm keng ma'noda — subyekt uchun hech qanday tashqi mukofot yoki majburiyat bilan bog'liq bo'lmagan, boshqa odamning farovonligiga qaratilgan xulq-atvor sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy psixologiyada u ko'pincha prosotsial xulq-atvorning eng yuqori, ichki motivlashgan darajasi deb qaraladi.

Altruizمنى o'rganishda uzoq yillar davomida hal etilmagan masalalardan biri — uning gender bilan bog'liqligi masalasidir. Kundalik ongda ayollar tabiatan mehribonroq, erkaklar esa hisob-kitobga moyilroq degan qarash ustunlik qiladi. Biroq empirik tadqiqotlar bu qarashni bir ma'noda tasdiqlamaydi: ba'zi holatlarda erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq yordam berishi, boshqa holatlarda esa aksincha manzara kuzatilishi qayd etilgan. Bunday qarama-qarshi natijalar altruizmning gender xususiyatlarini yaxlit hodisa sifatida emas, balki vaziyat, yordam turi va madaniy kontekst bilan bog'liq holda o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — altruizmning gender xususiyatlariga oid nazariy yondashuvlar va tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish, gender tafovutlarining psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida mavzuni empirik o'rganish yo'nalishlarini belgilashdan iborat. Tadqiqot muammosi quyidagi savolda ifodalanadi: erkaklar va ayollar altruizmi o'rtasidagi farq miqdoriy (kimning altruizmi kuchliroq) xarakterga egami yoki sifat (altruizm qanday shaklda namoyon bo'ladi) xarakteriga egami?

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Altruizm muammosini ilmiy o'rganish an'anasi bir necha yirik nazariy yo'nalishlarga bo'linadi. Evolyutsion yondashuv altruistik xulq-atvorni qarindoshlarni tanlash va o'zaro altruizm mexanizmlari orqali izohlaydi hamda erkak va ayolning reproduktiv strategiyalari farqidan kelib chiqib, yordamning turli shakllarini kutadi: erkaklarda — xavf bilan bog'liq, bir martalik, ko'zga tashlanadigan yordam, ayollarda — uzoq muddatli, g'amxo'rlikka asoslangan yordam. Ijtimoiy almashuv nazariyasi esa yordam berishni foyda va xarajatlar nisbatiga qarab tushuntiradi, ya'ni altruizmning butunlay g'arazsiz ekanligiga shubha bilan qaraydi [5].

K. Batson tomonidan ilgari surilgan empatiya-altruizm gipotezasi muammoni motivatsion nuqtayi nazardan yoritadi. Unga ko'ra, o'zga kishiga nisbatan empatik hamdardlik yuzaga kelganda, yordam berish motivi shaxsiy diskomfortni kamaytirish emas, balki aynan boshqa insonning ahvolini yaxshilash bo'ladi [2]. Ushbu yondashuv gender masalasi bilan bevosita bog'lanadi, chunki ko'plab tadqiqotlarda ayollarda empatiyaning o'zini baholash asosidagi ko'rsatkichlari



yuqoriroq ekani qayd etilgan. M. Hoffman empatiyani axloqiy rivojlanishning asosiy manbai deb hisoblab, uning tarbiya jarayonida shakllanishini alohida ta'kidlaydi [4].

Gender tafovutlarini tushuntirishda eng izchil nazariy asos sifatida A. Eagly ilgari surgan ijtimoiy rollar nazariyasi e'tirof etiladi. 1986-yilda A. Eagly va M. Crowley tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil yordam berish xulqiga oid yuzdan ortiq tadqiqot natijalarini umumlashtirib, gender tafovutlari xulq-atvorning turiga qattiq bog'liq ekanini ko'rsatdi: notanish kishiga qisqa muddatli, jasorat talab etadigan yordam ko'rsatishda erkaklar ustunlik qilsa, yaqin munosabatlar doirasidagi g'amxo'rlik va hissiy qo'llab-quvvatlashda ayollar ustun keladi [3]. Keyinchalik A. Eagly ushbu xulosani kengaytirib, prosotsial xulq-atvorning "erkakcha" va "ayolcha" shakllari haqidagi konsepsiyani asoslab berdi [6].

K. Gilligan axloqiy ong tadqiqotlarida g'amxo'rlik etikasi va adolat etikasini farqlab, ayollar axloqiy qarorlarni ko'proq munosabatlar va javobgarlik nuqtayi nazaridan, erkaklar esa qoidalar va huquqlar nuqtayi nazaridan qabul qilishini ko'rsatgan [7]. Bu farq altruistik motivatsiyaning ichki tuzilishiga ham taalluqlidir. N. Eyzenberg va uning hamkasblari esa prosotsial rivojlanish bo'yicha yirik umumlashtiruvchi ishlarida gender tafovutlari o'lchash usuliga sezilarli darajada bog'liq ekanini aniqladilar: o'zini baholash so'rovnomalarida farq katta, real kuzatuv va tabiiy eksperimentlarda esa ancha kichik bo'lib chiqadi [8; 9].

Rus va o'zbek psixologiyasi an'anasida altruizm ko'proq shaxs yo'nalganligi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ustanovkalar bilan bog'liq holda qaraladi. Sh. Shvarts tomonidan ishlab chiqilgan va V.N. Karandashev tomonidan moslashtirilgan

qadriyatlar metodikasi “xayrixohlik” va “universalizm” qadriyatlarini alohida ajratadi va ularning gender bo‘yicha taqsimlanishini o‘lchash imkonini beradi [13]. E.G‘. G‘oziyev ishlarida shaxs faolligining ijtimoiy yo‘nalganligi milliy tarbiya an‘analari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi [14]. Shu bilan birga, altruizmning gender xususiyatlarini O‘zbekiston sharoitida maxsus o‘rgangan tadqiqotlar hozircha yetarli emas — bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti — shaxsning altruistik xulq-atvori, predmeti esa ushbu xulq-atvorning gender bilan bog‘liq xususiyatlaridir. Ishda nazariy tahlil metodlari qo‘llanilgan: ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy-nazariy tahlil, umumlashtirish va tasniflash. Xorijiy meta-tahlillar va empirik tadqiqotlar natijalari ikkilamchi manba sifatida qiyoslangan, ularning metodologik asoslari va cheklovlari baholangan.

Tahlil quyidagi mezonlar bo‘yicha olib borildi: altruistik xulq-atvorning turi (bir martalik yordam, uzoq muddatli g‘amxo‘rlik, hissiy qo‘llab-quvvatlash, moddiy yordam, ko‘ngillilik faoliyati); yordam ko‘rsatish vaziyati (jamoat joyi yoki shaxsiy muhit, kuzatuvchilar borligi yoki yo‘qligi); yordam oluvchi bilan munosabat yaqinligi; motivatsion asos (empatik hamdardlik, ijtimoiy me‘yorga bo‘ysunish, o‘z obro‘sini oshirish). Aynan shu mezonlar gender tafovutlarining yaxlit emas, balki tabaqalashgan tabiatini ochib berishga imkon beradi.

Tahlil natijalari va ularning muhokamasi

Altruizmning umumiy darajasi va namoyon bo'lish shakllari. Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, altruizmning umumiy darajasi bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatsiz yoki juda kichik bo'lib chiqadi. Farq esa xulq-atvorning shakllari darajasida yaqqol namoyon bo'ladi. A. Eagly va M. Crowley meta-tahlilida qayd etilganidek, notanish odamga ko'chada yoki jamoat joyida ko'rsatiladigan, ma'lum darajada tavakkalchilik talab qiladigan yordamda erkaklarning ustunligi kuzatiladi [3]. Bunday vaziyatlar “qahramonlik” stsensariysiga mos keladi va an'anaviy erkak roli kutilmalari bilan mustahkamlanadi.

Ayollarning ustunligi esa boshqa turdagi altruizmda — yaqin kishilarga uzoq muddat g'amxo'rlik qilish, kasal yoki keksa oila a'zosini parvarish etish, hissiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, tinglash va hamdardlik bildirishda namoyon bo'ladi. Bu turdagi yordam ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmaydi va shu sababli an'anaviy eksperimental sxemalarda yetarli darajada qayd qilinmaydi. Aynan shu holat uzoq vaqt davomida “erkaklar ko'proq yordam beradi” degan xato umumlashmaning yuzaga kelishiga olib kelgan.

Empatiya va motivatsion asoslar. Empatiya ko'rsatkichlari bo'yicha ayollarning ustunligi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan, biroq bu ustunlik o'lchash usuliga qarab sezilarli o'zgaradi. O'zini baholashga asoslangan so'rovnomalarda farq eng katta, fiziologik ko'rsatkichlar (yurak urishi, teri o'tkazuvchanligi) yoki xulq-atvor kuzatuv asosidagi o'lchovlarda esa ancha kichik bo'ladi [8]. Bu holat ayollarda empatiya tuyg'usining nafaqat kuchliroq kechishi, balki gender roli kutilmalariga muvofiq ravishda ochiqroq ifodalanishi bilan ham izohlanadi.

Motivatsion asoslar tahlili shuni ko'rsatadiki, R. Chialdini va hamkasblari ta'kidlagan "yordam orqali o'z hissiy holatini yaxshilash" mexanizmi ikkala jinsda ham ishlaydi, biroq uning ulushi turlicha bo'lishi mumkin [5]. Eraklarda ijtimoiy e'tirof va o'z obro'sini saqlash motivi nisbatan kuchliroq, ayollarda esa munosabatlarni saqlash va javobgarlik hissi ustunroq namoyon bo'ladi. K. Gilligan tavsiflagan g'amxo'rlik etikasi ana shu motivatsion yo'nalishning axloqiy ifodasi hisoblanadi [7].

Gender stereotiplari va ijtimoiy kutilmalar. Ijtimoiy rollar nazariyasiga ko'ra, gender tafovutlari tug'ma xususiyatlardan ko'ra ko'proq mehnat taqsimoti va unga mos keladigan rol kutilmalari natijasidir [6]. Jamiyat ayoldan g'amxo'rlik, muloyimlik va boshqalar ehtiyojiga sezgirlikni, erkakdan esa mustaqillik, himoyachilik va qat'iyatni kutadi. Ushbu kutilmalar bolalikdan boshlab tarbiya orqali ichkilashtiriladi va keyinchalik shaxsning o'zini o'zi anglashiga singib ketadi. Natijada individ o'z altruistik faolligini gender roliga "mos" sohalarda namoyon qilishga moyil bo'ladi.

Muhim jihat shundaki, gender stereotiplari altruizmni nafaqat yo'naltiradi, balki uni cheklashi ham mumkin. Masalan, erkak kishi hissiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatishdan o'zini tiyishi, buni "erkakka xos emas" deb baholashi mumkin; ayol esa jismoniy xavf bilan bog'liq yordamdan chetlanishi mumkin. Shu ma'noda gender stereotiplarining yumshashi altruistik xulq-atvorning har ikkala jinsda ham kengroq va erkinroq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Madaniy kontekst va O'zbekiston sharoiti. Altruizmning gender xususiyatlari madaniy kontekstdan tashqarida to'g'ri talqin qilinishi mumkin emas.



Kollektivistik madaniyatlarda, jumladan O‘zbekistonda, o‘zaro yordam ko‘pincha shaxsiy tanlov emas, balki qarindoshlik va qo‘shnichilik tizimidagi majburiyat sifatida amal qiladi. Hashar, ma’raka va marosimlarda ko‘rsatiladigan yordam, kasalni yo‘qlash, keksalarni parvarish qilish an‘analari gender bo‘yicha aniq taqsimlangan: tashkiliy va moddiy yuk ko‘proq erkaklar zimmasiga, kundalik g‘amxo‘rlik esa ayollar zimmasiga tushadi.

Bunday sharoitda G‘arb metodikalarini o‘zgartirishsiz qo‘llash natijalarni buzib ko‘rsatishi mumkin. Chunki mahalliy respondent uchun qarindoshga yordam berish altruistik tanlov emas, balki tabiiy burch sifatida idrok etiladi va so‘rovnomada shunday baholanmasligi ehtimoli yuqori. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida o‘tkaziladigan tadqiqotlarda yordam obyekti (qarindosh — tanish — notanish) bo‘yicha aniq tabaqalashtirilgan, milliy madaniyatga moslashtirilgan metodikalardan foydalanish zarur.

Yosh va ta’lim omilining qo‘shimcha ta’siri. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender tafovutlari yosh bilan birga o‘zgaradi. Maktabgacha yoshda erkak va qiz bolalarning prosotsial harakatlari orasida sezilarli farq kuzatilmaydi; farq o‘smirlik davrida, gender identikligining faol shakllanishi bilan bir vaqtda kuchayadi [9]. Yetuklik davrida esa u kasbiy faoliyat va oilaviy rollar ta’sirida yana o‘zgaradi. Bundan tashqari, ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan guruhlarda gender tafovutlari nisbatan kichikroq bo‘lishi qayd etilgan, bu esa stereotiplarning ta’lim orqali yumshashi bilan bog‘liq deb izohlanadi.

Muhokama

Olib borilgan tahlil natijalari altruizmning gender xususiyatlari haqidagi ikki qutbli qarashlarni — “ayollar altruistiroq” yoki “hech qanday farq yo‘q” degan qarashlarni — bir tomonlama deb baholash imkonini beradi. Haqiqat oraliq holatda: farq bor, biroq u altruizmning kuchida emas, balki uning yo‘nalishi, shakli va motivatsion asosida namoyon bo‘ladi. Shu bois altruizmi yagona umumlashgan ko‘rsatkich sifatida o‘lchash metodologik jihatdan asossizdir.

Tahlil natijalari ijtimoiy rollar nazariyasining tushuntirish imkoniyatlari evolyutsion yondashuvnikidan kengroq ekanini ko‘rsatadi, chunki u tafovutlarning madaniyatlararo va tarixiy o‘zgaruvchanligini izohlay oladi. Ayni paytda evolyutsion yondashuvni butunlay inkor etib bo‘lmaydi: u xavf bilan bog‘liq yordamdagi barqaror tafovutlarni tushuntirishda foydali qoladi. Eng samarali yo‘l — ushbu yondashuvlarni raqobatlashtiruvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi sifatida qarashdir.

Xulosa

O‘tkazilgan nazariy-qiyosiy tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, altruizmning umumiy darajasi bo‘yicha erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tafovut kichik bo‘lib, asosiy farq xulq-atvorning shakli va sohasida namoyon bo‘ladi: erkaklarda instrumental, bir martalik va ko‘zga tashlanadigan yordam, ayollarda esa ekspressiv, uzoq muddatli va munosabatlarga yo‘naltirilgan g‘amxo‘rlik ustunlik qiladi.

Ikkinchidan, gender tafovutlarining asosiy manbai biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar — mehnat taqsimoti, rol kutilmalari va tarbiya amaliyoti hisoblanadi. Uchinchidan, o‘lchash usuli natijalarga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi: o‘zini



baholash metodikalari tafovutlarni boʻrttirib koʻrsatishga moyil. Toʻrtinchidan, Oʻzbekiston sharoitida altruizmni oʻrganishda milliy madaniyatning kollektivistik xususiyatlari va yordam obyekti boʻyicha tabaqalanishni albatta hisobga olish talab etiladi.

Tadqiqotning istiqbolli yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: mahalliy namunada altruizmning turli shakllarini alohida oʻlchaydigan metodika ishlab chiqish; talabalar va ishlovchi yoshlar guruhlarida qiyosiy empirik tadqiqot oʻtkazish; koʻngillilik faoliyatida ishtirok etish motivlarining gender tuzilishini oʻrganish. Ushbu yoʻnalishlardagi izlanishlar yoshlar tarbiyasi va koʻngillilik harakatini rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Bar-Tal D. Prosocial Behavior: Theory and Research. — Washington: Hemisphere Publishing, 1976. — 172 p.
2. Batson C.D. The Altruism Question: Toward a Social-Psychological Answer. — Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1991. — 257 p.
3. Eagly A.H., Crowley M. Gender and helping behavior: A meta-analytic review of the social psychological literature // Psychological Bulletin. — 1986. — Vol. 100, No. 3. — P. 283–308.
4. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 331 p.



5. Cialdini R.B., Schaller M., Houlihan D., Arps K., Fultz J., Beaman A.L. Empathy-based helping: Is it selflessly or selfishly motivated? // Journal of Personality and Social Psychology. — 1987. — Vol. 52, No. 4. — P. 749–758.
6. Eagly A.H. The his and hers of prosocial behavior: An examination of the social psychology of gender // American Psychologist. — 2009. — Vol. 64, No. 8. — P. 644–658.
7. Gilligan C. In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1982. — 216 p.
8. Eisenberg N., Fabes R.A., Spinrad T.L. Prosocial development // Handbook of Child Psychology. Vol. 3. — New York: Wiley, 2006. — P. 646–718.
9. Eisenberg N., Mussen P.H. The Roots of Prosocial Behavior in Children. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989. — 197 p.
10. Carlo G., Randall B.A. The development of a measure of prosocial behaviors for late adolescents // Journal of Youth and Adolescence. — 2002. — Vol. 31, No. 1. — P. 31–44.
11. Van Lange P.A.M., Otten W., De Bruin E.M.N., Joireman J.A. Development of prosocial, individualistic, and competitive orientations // Journal of Personality and Social Psychology. — 1997. — Vol. 73, No. 4. — P. 733–746.
12. Piliavin J.A., Charng H.-W. Altruism: A review of recent theory and research // Annual Review of Sociology. — 1990. — Vol. 16. — P. 27–65.



13. Карандашев В.Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности: концепция и методическое руководство. — СПб.: Речь, 2004. — 70 с.
14. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. — 543 b.